

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ
ХИТОЙ ФИЛОЛОГИЯСИ КАФЕДРАСИ**

«ТАСДИҚЛАЙМАН» _____

Ўқув ишлари бўйича

проректор Бултаков И.

Маъруза матни ЎУК

мажлисининг

_____ 2010 йилдаги

_____ сонли мажлисида тасдиқланган

**Хитой тили
фанидан**

МАЪРУЗА МАТНЛАРИ

Таълим йўналиши: 5220100

Курс: 1

Семестр: 1

Маъруза: 84

Амалий машгулотлар: 126

Рейтинг: ҳар бир талабага 0,8 дан берилади

Мустақил таълим: 30

Жами: 210

Тошкент-2010

Маъруза матни намунавий дастур ва таълим йўналишининг ўқув режаси асосида тузилган.

Тузувчи: ф.ф.н.Зиямухамедов Ж, Султанова Л.А., Туратова М.

Маъруза матни кафедра мажлисининг 5.05.2010 йилдаги 18 сонли мажлисида муҳокама қилинган.

Кафедра мудири _____ ф.ф.н. Носирова С.А.

Маъруза матни ЎУК мажлисининг 17.06..2010 йилдаги 4 сонли мажлисида муҳокама қилинган ва тасдиққа тавсия этилган.

Факультет

ЎУК

раиси

_____ О.Шокиров

目录 Mundarija

1- dars

一、语音 Fonetika

1. Shenmular: f,s,sh,h,m,n,l.....
2. Yunmular: a,u.....
3. Ohang(Ton)

二、练习 Mashqlar.....

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. Xitoy tilining fonetik xususiyatlari

2- dars

一、语音 Fonetika|

1. Shenmular: b, d, g, p, t, k, c, ch.....
2. Yunmular: o, e, ai, ei, ao, ou.....
3. Bo'g'in.....

二、练习 Mashqlar.....

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. Yengil ohang.....

3- dars

一、语音 Fonetika. Yunmular: an, en, in, ang, eng, ing, ong.....

二、练习 Mashqlar.....

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. Ohang o'zgarishi(1).....

4- dars

一、语音 Fonetika

1. Shenmular: j, q, x, z ,zh, r.....

2. Yunmular: i, -i, ia, ie, iao, iou(-iu), ian, iang, iong.....

3. Transkripsiya qoidalari(1).....

二、练习 Mashqlar.....

5- dars

一、语音 Fonetika

1. Yunmular: ua, uo, uai, uei(-ui), uan, uen(-un), uang, ueng.....

2. Transkripsiya qoidalari(2).....

二、练习 Mashqlar.....

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. “Y” va “w”ning

vazifasi.....

6- dars

一、语音 Fonetika

1. Yunmular: u, ue, uan, un, er.....

2. Transkripsiya qoidalari(3).....

二、练习 Mashqlar.....

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. “Er”lashgan yunmu

7- dars

一、课文 Matn 我是俄罗斯

人.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1.“是” ishtirokidagi gaplar

2. Tasdiq-inkor shaklidagi soʻroq gaplar.....

3. Aniqlovchi va “的” yordamchi soʻzi.....

4. “也”ravishi.....

四、语音 Fonetika

1. Soʻz urgʻusi(1).....

2. Ohangning oʻzgarishi(2).....

3. Intonatsiya.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili

2. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 Oʻqish uchun matn 伊万是俄罗斯人

八、语言知识 Til haqida maʼlumotlar. Xitoy yozuvi.....

8- dars

一、课文 Matn 你们学校有留学生吗.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. “有” ishtirokidagi gaplar.....

2. Tasdiq-inkor shaklidagi soʻroq gaplar

3. Sifat aniqlovchi vazifasida.....

4. “都” va “还” ravishlari.....

四、语音 Fonetika

1. Soʻz urgʻusi(2).....

2. Tasdiq-inkor shaklidagi soʻroq gaplarning ohangi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tuzilishi.....

2. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习

Mashqlar.....

七、阅读课文 Oʻqish uchun matnlar

(一) 张进的学校——黑龙江大学.....

(二) 聪明的爱迪生.....

八、语言知识 Til haqida maʼumotlar. Iyerogliflar.....

9- dars

一、课文 Matn 这是谁的词典.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Feʼl-kesimli gaplar

2. Soʻroq soʻzlar yordamida yasalgan soʻroq gaplar.....

3.“呢” koʻrinishidagi notoʻliq soʻroq gaplar.....

4. Raqamlarning oʻqilishi.....

四、语音 Fonetika

1. Soʻz urgʻusi(3).....

2. Soʻroq olmoshi yordamida yasalgan soʻroq gaplarning ohangi.....

3. Notoʻliq soʻroq gaplarning ohangi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matnlar

(一) 我住 1302 号房间.....

(二) 司马光.....

八、语言知识 Til haqida ma’umotlar. Grafema, so‘z va iyeroglif...

10- dars

一、课文 Matn 后天是我姐姐的生日.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar.....

2. Sananing ifodalanishi.....

3. Ot-kesimli gaplar.....

4. “....好吗?”, “....对吗?” ko‘rinishidagi so‘roq gaplar

5. Old ko‘makchili so‘z birikmalari.....

四、语音 Fonetika

1. “是吗?” shaklidagi gaplarning ohangi.....

2. “....好吗?,对吗?” ko‘rinishidagi so‘roq gaplarning ohangi

五、汉字 Ierogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matnlar

(一) 四月三十日是伊万的生日.....

(二) 诚实的孩子.....

八、语言知识 Til haqida ma’umotlar. Xitoy tilida asosiy gap bo‘laklari

(1)

11- dars

一、课文 Matn 每天几点上课.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Ega-kesimdan hosil bo‘lgan gaplar.....

2. Vaqtni ifoda etish (点、分、秒)

3. “一下” fe’l hisob so‘zi.....

四、语音 Fonetika. Ohangning o‘zgarishi(3).....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matnlar

(一) 谢尔盖的一天.....

(二) 折筷子.....

八、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. Xitoy tilida asosiy gap bo'laklari
(2)

12- dars

- 一、课文 Matn 你买什么.....
- 二、新词语 Yangi so'z va so'z birikmalari.....
- 三、语法 Grammatika
1. 100 dan yuqori bo'lgan sonlar.....
2. Pul birliklarining ifodalanishi.....
3. Hisob so'zlar
4. Sifat-kesimli gaplar.....
5. “还是” ko'rinishidagi al'ternativ so'roq gaplar
- 四、语音 Fonetika
1. So'z urg'usi(4).....
2. Al'ternativ so'roq gaplar intonatsiyasi.....
- 五、汉字 Iyerogliflar
1. Iyerogliflar tahlili.....
- 六、练习 Mashqlar.....
- 七、阅读课文 O'qish uchun matn 在俄罗斯购物.....
- 八、文化窗口 Madaniyat ko'zgusi
- 九、语言知识 Til haqida ma'lumotlar. Piktogramma va ideogrammalar

13- dars

- 一、课文 Matn 他教我们太极拳.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Qoʻsh toʻldiruvchili gaplar.....

2. Tartib sonlar.....

四、语音 Fonetika

1. Qoʻsh toʻldiruvchili gaplar urgʻusi.....

2. “Er” lashish.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 Oʻqish uchun matn 一封家信.....

八、文化窗口 Madaniyat koʻzgusi.....

九、语言知识 Til haqida maʼlumotlar. Iyerogliflarning fono-ideografik turi

14- dars

一、课文 Matn 我父母下星期来中国旅游.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Koʻp feʼlli bogʻlangan gaplar.....

2. Vaqtning ifodalanishi.....

3. Chama sonlarning ifodalanishi.....

四、语音 Fonetika. Chama sonlarning talaffuz qilinishi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matn 我陪一个贸易代表团去北京.....

八、文化窗口 Madaniyat ko‘zgusi.....

八、语言知识 Til haqida ma’lumotlar. Xitoy tili lug‘atlari haqida.....

15- dars

一、课文 Matn 晚上我请你吃

饭.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. “的” li birikma.....

2. Umumiy bo‘lakli gaplar(1).....

四、语音 Fonetika. Umumiy gap bo‘lagi mavjud bo‘lgan gaplarda
urg‘u...

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matnlar

(一) 这个钱包是谁的.....

(二) 汽车的故事.....

16- dars

一、课文 Matn 你家附近有银行吗.....

二、新词语 Yangi soʻz va soʻz

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Oʻrin-joyini anglatuvchi soʻzlar.....

2. Mayjudlik maʼnosini ifodalovchi gaplar.....

3. “离”，“从”，“往” old koʻmakchilari.....

4. Feʼllarning ikkilanishi.....

四、语音 Fonetika

1. Soʻz urgʻusi(5).....

2. Mayjudlik maʼnosini ifodalovchi gaplarning intonatsiyasi.....

3. His-hayajon gaplarning intonatsiyasi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 Oʻqish uchun matnlar

(一) 我爱我家.....

(二) 阿凡提借锅.....

八、语言知识 Til haqida maʼlumotlar. Iyeroglif kalitlari va

lugʻatlar.....

17- dars

一、课文 Matn 你会打乒乓球吗.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Ko‘makchi fe’llar

2. “了” yordamchi so‘zi (1)

四、语音 Fonetika. Ko‘makchi fe’lli gaplarning intonatsiyasi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matnlar

(一) 她不能去上课.....

(二) 唐人街.....

八、语言知识 Til haqida ma’lumot. Transkripsiya va

lug‘atlar.....

18- dars

一、课文 Matn 今天玩儿得非常愉

快.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. Miqdor va daraja to‘ldiruvchilari (1).....

2. “就” ravishi (1).....

四、语音 Fonetika. Miqdor va daraja to‘ldiruvchili gaplarning

ohangi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matn 谈爱好.....

八、文化窗口 Madaniyat ko‘zgusi.....

九、语言知识 Til haqida ma’lumot. Sodda va qisqartirilmagan

iyerogliflar

19- dars

一、课文 Matn 你来哈尔滨多长时间了.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. “了” yordamchi so‘zi (2).....

2. “遍” fe’l hisob so‘zi.....

3. “是” ishtirokidagi gaplar (2)

四、语音 Fonetika. “....了没有” shaklidagi so‘roq gaplar intonatsiyasi...

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O'qishuchun matn 北方名城——哈尔

滨.....

八、文化窗口 Madaniyat ko'zgusi.....

九、语言知识 Til haqida ma'lumot. Tinish belgilari(1).....

20- dars

一、课文 Matn 我们去了长城、故宫.....

二、新词语 Yangi so'z va so'z

birikmalari.....

三、语法 Grammatika

1. “了” yordamchi so'zi(3).....

2. “又” ravishi.....

3. “就” ravishi(2).....

4. “次” va “回” hisob so'zlari.....

四、语音 Fonetika. Ma'no urg'usi.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O'qish uchun matn 我跟爸爸、妈妈去北京了.....

八、文化窗口 Madaniyat ko'zgusi.....

九、语言知识 Til haqida ma'lumot. Tinish belgilari (2).....

21- dars

一、课文 Matn 这个学期就要结束了.....

二、新词语 Yangi so‘z va so‘z birikmalari.....

三、语法 Grammatika. Ish –harakatning tugallanganligi.....

四、语音 Fonetika.

Pauza.....

五、汉字 Iyerogliflar

1. Iyerogliflar tahlili.....

六、练习 Mashqlar.....

七、阅读课文 O‘qish uchun matn 今天就要回国

了.....

八、文化窗口 Madaniyat ko‘zgusi.....

九、语言知识 Til haqida ma’lumot. Xitoy tilida semantik

bog‘lanish.....

1-Dars

一、语音 Fonetika

1. Shenmular –f s sh h m n l

Yagona fonetik birlikni hosil qiluvchi bir yoki bir nechta tovushlardan iborat eng kichik nutq birligi bo‘g‘in deb ataladi. Xitoy tilida bir bo‘g‘in ikki qismga bo‘linadi. Bo‘g‘in boshidagi undosh tovush **shenmu**, undan keyingi bo‘lagi esa **yunmu** deb ataladi. Hozirgi zamon xitoy adabiy tilida (Putunhua)da 21ta shenmu mavjud.

f[f] lab-tish tovushi sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh. Bu tovushni talaffuz qilganda, yuqorigi tishlar pastki labga yaqinlashadi. Havo oqimi tish bilan lab orasidan sirg‘alib chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

s[s] til uchi oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh. Bu tovushni talaffuz qilganda til uchi tepa tishning orqasiga yaqinlashadi, u yerda tor tirqish hosil qilib, havo oqimi shu yerdan sirg‘alib chiqadi.

sh[ʃ] til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda til uchi qayrilib qattiq tanglayga yaqinlashadi. Havo oqimi til bilan qattiq tanglay orasidan sirg‘alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi.

h[x] til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh. Bu tovushni talaffuz qilganda til orqasi ko‘tarilib yumshoq tanglayga yaqinlashadi. Havo oqimi til orqasi bilan yumshoq tanglay hosil qilgan bo‘shliqdan sirg‘alib chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

m[m] qo‘sh lab tovushi, jarangdor burun tovushi. Bu tovushni talaffuz qilganda havo oqimi burun bo‘shlig‘idan chiqadi, tovush pardasi titraydi.

n[n] til uchi jarangdor burun undoshi. Bu tovushni talaffuz qilganda ogʻiz yarim holda ochiladi, til uchi tepa tishning milkiga taqaladi, havo oqimi burun boʻshligʻidan chiqadi, tovush paychasi titraydi.

l[l] til uchi undoshi. Bu tovushni talaffuz qilganda ogʻiz yarim holda ochiladi, til uchi tepa tishning milkiga taqalib, havo oqimi tilning ikki yon tomonidan chiqadi. Tovush paychasi titraydi.

2. Yunmular – a u

Shenmudan keyingi boʻlak yunmu deb ataladi. Putunhuada 39 ta yunmu mavjud.

a[a] unli tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda ogʻiz katta ochilib, til oʻrni pastga tushadi. Tovush pardasi titiraydi.

u[u] unli tovush. Bu tovush talaffuz qilinganda ogʻiz kichik ochilib, til oʻrni yuqoriga koʻtarilib orqaga tortiladi. Havo oqimi erkin chiqadi, tovush pardasi titiraydi.

3. Ohang.

Xitoy tili ohangli tillar guruhiga kiradi. Xitoy adabiy tilida toʻrtta asosiy ohang mavjud:

“ˊ”birinchi ohang , “ˊˊ” ikkinchi ohang , “ˊˊˊ” uchinchi ohang, “ˊˊˊˊ” toʻrtinchi ohang.

Quyida bu ohanglarning farqlari koʻrsatilgan:

“ˊˊ” birinchi ohang. Yuqori tekis ohang.

“ˊˊˊ” ikkinchi ohang. Yuqoriga koʻtariluvchi ohang.

“ˊˊˊˊ” uchinchi ohang. Pastlab yana yuqoriga koʻtariluvchi ohang .

“ˊˊˊˊˊ” toʻrtinchi ohang. Yuqoridan pastga tushuvchi ohang .

Ohang belgisi unli tovush ustiga qo'yiladi. Ohang so'z ma'nosini farqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan: “mā”(妈 ona), “má”(麻 kanop), “mǎ”(马 ot), “mà”(骂 so'kinish). Misollardan ko'rinib turibdiki, shenmu va yunmular bir xil bo'lsa ham, lekin ohang o'zgarishi so'z ma'nosini ham o'zgartirib yuboradi.

二、练习 Mashqlar

1. Quyidagi shenmu va yunmularni to'g'ri talaffuz qiling.

f s sh h m n l a u

2. O'qing va taqqoslang.

s sh f h m n h l
s f n h l f sh h

3. Quyidagi shenmu va yunmularni o'qing.

	a	u
f	fa	fu
s	sa	su
sh	sha	shu
h	ha	hu
m	ma	mu
n	na	nu
l	la	lu

4. Quyidagi tovushlarni taqqoslang.

hā-lā shā-sā nā-hā sū-shā

fā-lā	fū-lū	shū-shā	sū-hū
mā-lā	shū-sū	fā-sā	nū-hū
shā-lū	fū-mā	lā-nā	lū-fā
sū-sā	fā-sū	hū-hā	nū-mū
fā-shā	shā-mā	lā-shū	hū-lū

5. Tinglang, eshitgan tovushlaringizni belgilang.

- 1) shā sā mū nū fā hā
- 2) hū lū sū shū mū hā
- 3) sū hū nū lū sā fā
- 4) shū mū hā lā shā fā

6. Ohanglar bo'yicha to'g'ri talaffuz qiling.

fā fǎ fǎ fà fū fú fǔ fù
shā shá shǎ shà shū shú shǔ shù
mā má mǎ mà mū mú mǔ mù
nā ná nǎ nà hū hú hǔ hù

7. Ohanglar bo'yicha farqlang.

fā fǎ	fā fǎ	fā fà
fū fú	fū fǔ	fū fù
shā shá	shā shǎ	shā shà
shū shú	shū shǔ	shū shù
mā má	mā mǎ	mā mà
nā ná	nā nǎ	nā nà
hū hú	hū hǔ	hū hù
lū lú	sā sǎ	sū sù

lā là	lú lù	mǔ mù
-------	-------	-------

8. Tinglang va bo'sh kataklarni to'ldiring.

_____ ā _____ ā _____ ū _____ ū _____ ā
ā
 _____ ā _____ ā _____ ā _____ ū _____ ū
ū
 _____ ū _____ ū _____ l _____ m _____ s _____ f

9. Tinglang va eshitgan tovushlaringizni yozing.

- (1)
- (2)
- (3)

三、语言知识 Til haqida ma'lumot

Xitoy tilining fonetik xususiyatlari

Xitoy tili Xitoy-Tibet tillar oilasi guruhiga kiradi. Unda Xitoy aholisining 95% dan ortig'i foydalanadi. Bu mamlakat katta hududda joylashgan bo'lib, qadim tarixga ega. Shuning uchun xitoyliklarda umummilliy til bilan birga turli shevalar ham mavjud. Ular bir-biridan fonetik, leksik va grammatik jihatlardan farq qiladi.

Xitoy tili (hozirgi zamon adabiy tili-Putunhua) shimoliy lahja va Pekin shevasining fonetikasi asosida shakllangan bo'lsa, grammatikasi "baihuawen" zamonaviy adabiyot tili grammatik xususiyatlariga asoslangan. Putunhuaning fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) bo'g'in boshi va ohirida ikki yoki uchta undosh tovushning birikishi kuzatilmaydi. Bo'g'in tuzilishi aniq tartibga ega;

- 2) bo‘g‘in tuzilishida unli tovushlar muhim ahamiyatga ega. Xitoy tilida bo‘g‘in undosh tovushlarsiz yasalishi mumkin, lekin unli tovushlarsiz bo‘g‘in hosil qilib bo‘lmaydi. Bo‘g‘inlar bir yoki undan ortiq tovushlardan tuzilganligi bois xitoy tili ohangli til hisoblanadi.
- 3) ohang mavjudligi. Har bir bo‘g‘in ohangga ega. Ohanglar nafaqat ma’no farqlash xususiyatiga ega, balki ular nutqqa ohangdorlik baxsh etadi.

2- Dars

一、语音 Fonetika

1. Shenmular: b d g p t k c ch

b [p] qo‘sh lab undosh—nafassiz, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda lablar yumilib, havo oqimi portlab chiqadi, tovush paychasi titramaydi.

d [t] til uchi undoshi—nafassiz, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda, til uchi tepa tishning milkiga taqaladi. Og‘iz bo‘shlig‘iga havo to‘planadi. Til uchi pastlab havo oqimi portlab chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

g [k] til orqa, nafassiz, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda til orqasi yumshoq tanglayga taqaladi. Havo oqimi portlab chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

p [pʼ] qoʻsh lab undoshi—nafasli, portlovchi, jarangsiz tovush. Tovushning talaffuz qilinishi “b” bilan oʻxshash, biroq havo kuchli portlab chiqadi.

t [tʼ] til uchi undoshi—nafasli, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinishi “d” bilan oʻxshash. Havo oqimi portlab chiqadi.

k [kʼ] til orqa undoshi—nafasli, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinishi “g” bilan oʻxshash. Havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan kuchli portlab chiqadi.

c [tsʼ] til uchi undoshi—nafasli, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda til uchi tepa tishlar milkiga engil tegib, havo oqimi tor tirqishdan sirgʻalib chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

ch [tʃʼ] til oʻrta, nafasli, jarangsiz tovush, talaffuz qilinganda tilning oʻrtasi yuqoriga koʻtarilib, til uchi qayrilib, qattiq tanglayga tegadi. Havo oqimi qattiq tanglay oʻrasidan sirgʻalib chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

2. Yunmular - o e ai ei ao ou

o [o] unli tovush. Talaffuz qilinganda ogʻiz oʻrtacha ochilib, til yarim (holda) yuqoriga koʻtariladi va orqaga tortiladi, lablanadi.

e [ɣ] unli tovush. Talaffuz qilinganda til uchi pastga egiladi, “o”ga oʻxshab talaffuz qilinadi, lekin lablanmaydi.

ai, ei, ao, ou - qoʻshma yunmular boʻlib, talaffuzda oldingi unli tovush ikkinchisiga sirgʻalib oʻtadi. Oldingi unli tovush jarangdor boʻlib chiqadi, keyingi unli tovush esa engil aytiladi.

ai [ai]-bu erda “a” tovushi, alohida olingan “a”dan jarangliroq talaffuz qilinadi.

ei [ei]-oldingi “E”ga oʻxshab talaffuz qilinadi.

ao [au]-“a”ni talaffuz qilganda til orqaga tortiladi, “o”ni talaffuz qilganda til yuqoriga ko‘tarilib, “o” bilan “u” o‘rtasidagi holatni egallaydi.

ou [ou]-“o”va “u”ni talaffuz qilganda lablar nisbatan juftlashib, bo‘shashadi.

3. Bo‘g‘in

<u>ohang</u> shenmu +yunmu

Putunhuada 400dan ortiq bo‘g‘in mavjud bo‘lib ularning aksariyat qismi shenmu bilan boshlanadi. Masalan: “shǒudū”(poytaxt), lekin yunmu, yani unli tovush bilan boshlanadigan bo‘g‘inlar ham uchraydi. Masalan: “é”(g‘oz).

二、练习 Mashqlar

1. Quyidagi yunmu va shenmularni o‘qing.

p k c t ch b d g
o e ai ei ao ou

2. Shenmu va yunmularni talaffuzda taqqoslang.

b—p d—t g—k c—ch
o—ou ai—ao e—ei ou—u

3. Quyidagi shenmu va yunmularni o‘qing.

	o	e	ai	ei	ao	ou
--	---	---	----	----	----	----

b	bo		bai	bei	bao	
d		de	dai	dei	dao	dou
g		ge	gai	gei	gao	gou
p	po		pai	pei	pao	pou
t		te	tai		tao	tou
k		ke	kai	kei	kao	kou
c		ce	cai		cao	cou
ch		che	chai		chao	chou

4. Bo‘g‘inning tovush tarkibini taqqoslang.

pā—bā bēi—fēi kāo—gāo cāi—sāi
 shē—shēi bō—bāo kū—gū chū—chōu
 tē—dēi tōu—dōu gā—gē hē—lē
 fōu—shōu dā—cā hēi—nēi māi—māo
 mōu—lōu hāo—lāi bēi—pēi hāi—lāi

5. Tinglang, tushirib qoldirilgan shenmu va yunmularni yozing.

_____ō _____ē _____ā _____āo _____āi _____ēi

āo

_____ō _____ē _____ā _____āo _____āi _____ēi

āo

t _____k _____b _____c _____h _____l _____g _____

d _____f _____g _____ch _____m _____n _____d _____

6. Ohanglar bo'yicha to'g'ri talaffuz qiling.

bā	bá	bǎ	bà	kē	ké	kě	kè
pēi	péi	pěi	piè	gāo	gáo	gǎo	gào
tōu	tóu	tǒu	tòu	chāi	chái	chǎi	chài
lū	lú	lǔ	lù	cāo	cáo	cǎo	cào
chē	ché	chě	chè	mō	mó	mǒ	mò

7. Ohanglar bo'yicha farqlang.

1) bāo	báo	bāo	bǎo	bāo	bào		
pāo	páo	pāo	pǎo	pāo	pào		
bāi	bái	bāi	bǎi	bāi	bài		
cāi	cái	cāi	cǎi	cāi	cài		
fēi	fěi	fēi	fěi	fēi	fèi		
2) dē	dé	dē	dè	hē	hé	hē	h
è							
	gē	gé	gē	gè	bēi	běi	bēi
bèi							
	gū	gǔ	gū	gù			

3) chāo chōu	dāo dōu	cháo chóu	táo tó
u			
kǎo gǒu	shǎo kǒu	fèi mèi	lèi nè
i			
4) hēi shéi	gěi lèi	dāi pái	gǎi t
ài			

8. Tinglang va to‘g‘ri variantni belgilang.

- | | | |
|------------|----------|---------|
| 1) pà bà | fú hù | kǎi hǎi |
| 2) sè shè | sè cè | dāo tāo |
| 3) gòu kòu | chāi cāi | gāo gōu |
| 4) bāi bēi | dài dào | gě gěi |
| 5) bō bū | mó móu | fā fá |
| 6) sù sù | shá shǎ | hǔ hù |
| 7) mǎi mài | cái cài | |

9. Ohang belgilarini qo‘ying.

- | | | | | | |
|---------|------|-----|-----|-----|-----|
| 1) mu | ge | bei | wai | tao | ke |
| 2) dao | gou | shu | du | che | hou |
| 3) tai | pei | mou | she | lao | fei |
| 4) chao | shei | ku | na | hei | bu |
| 5) fei | pao | chu | ai | la | kao |

三、语言知识 Til haqida ma'lumotlar

Yengil ohang

Yengil ohang beshinchi ohang hisoblanmaydi, balki xitoy tili fonetikasidagi o'ziga xos hodisadir. Ayrim holatlarda bo'g'in hech qanday ohang olmay qisqa va engil talaffuz qilinadi. Bunda bo'g'in ustiga ohang belgisi qo'yilmaydi, masalan: 妈妈 māma(ona), 头发 tó ufa(soch), 好吧 hǎoba(yaxshi). Oldingi bo'g'in ohangiga ko'ra yengil ohang yo kuchayadi yo pasayadi. Odatda uchinchi ohangdan keyin yengil ohang yuqori darajada qoladi, birinchi va ikkinchi ohangdan keyin esa pasayadi, to'rtinchi ohangdan keyin eng quyi darajaga tushadi.

Ayrim yengil ohanglar ma'no farqlash xususiyatiga ega, masalan: dōngxī(东西-sharq va g'arb), dōngxī(东西-narsa), dàyì(大意-asosiy mazmun-mohiyat), dàyì(大意-e'tibordan chetda qoldirmoq). Ayrim ohanglar so'z turkumlarini ajratadi, masalan: dìdào(地道-yer osti yo'li), dìdào(地道-haqiqiy).

Mashg'ulot davomida foydalaniladigan iboralar:

把书打开。

Bǎ shū dǎ kāi.

Darsligingizni oching.

3-Dars

一、语音 Fonetika

Yunmular

an en in ang eng ing ong

an, en, in, ang, eng, ing, ong —Unli tovushlardan keyin “n”, “ng” burun tovushlari kelib, burun yunmusini hosil qiladi. Bu tovushlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularni talaffuz qilganda havo oqimi dimoqdan chiqadi.

an[an], **en**[ən], **in**[in]—Avval unli tovush talaffuz qilinadi, keyin yumshoq tanglay pastga tushirilib, burun tovushi kuchayadi. Til uchi yuqori tishlarga taqalib, “n” tovushi talaffuz qilinadi.

ang[aŋ], **eng**[eŋ], **ing**[iŋ], **ong**[uŋ] — Bu tovushlarni talaffuz qilganda, avval unli tovush talaffuz qilinib, keyin yumshoq tanglay pastga tushiriladi. Tilning orqa qismi yumshoq tanglayga taqalib, “ng” tovushi talaffuz qilinadi.

二、练习 Mashqlar

1. Quyidagi yunmularni o‘qing.

an en in ang eng ing ong

2. Shenmu va yunmularni o‘qing.

	an	en	in	ang	eng	ing	ong
b	ban	ben	bin	bang	beng	bing	
p	pan	pen	pin	pang	peng	ping	
f	fan	fen		fang	feng		
t	tan			tang	teng	ting	tong
n	nan	nen	nin	nang	neng	ning	nong
l	lan		lin	lang	leng	ling	long
h	han	hen		hang	heng		hong
s	san	sen		sang	seng		song
g	gan	gen		gang	geng		gong
k	kan	ken		kang	keng		kong
ch	chan	chen		chang	cheng		chong

3. Tovushlarni taqqoslang.

fēn—fēng

lín—líng

dān—dāng

tán—tá

ng

shēn—shēng	chǎn—chǎng	fàn—fàng	bīn—bī
ng			
sēn—shēn	cān—cāng	chōng—cōng	mín—mí
ng			
gān—gēn	cháng—cheng	pín—píng	lǐn—lǐng
fēn—fēng	shēn—shēng	mén—méng	chén—ch
éng			
hǎn—hěn	gān—gēn	dǎng—děng	cāng—ch
éng			
gǎn—tǎng	néng—nóng	lǐng—lěng	nèi—
nèn			

4. Ohang belgilarini qo‘ying.

1) mu ge	bei wai	cao chang
2) shang bao	geng gao	chu fang
3) hai nan	chang pao	ka che
4) ken ding	chong feng	ting ke
5) hou che	ling kong	bing ling
6) dai gou	leng shan	ke shang
7) dou fu	ming bai	po po
8) lei le	fu shang	shu shu

5. O‘qing.

búdàn	gànbù	hòulái	kànfǎ
cǎisè	ménkǒu	máobìng	nándào

fàngdà gōnggòng píngděng kěndìng

6. Yengil ohangga diqqat qilib o‘qing.

1) māma shūshu tāmen gēntou

2) bóbo láiba míngbai chúle

3) fǔshang nǎinai hǎoma dǎting

4) lèile dòufu mùtou sònglai

7. Ohang o‘zgarishiga diqqat qilib o‘qing.

1) mǐtāng hēngāo běnbān chǎoshēng

2) chǎnfáng kǎochá hēn nán běnlái

3) lǎobǎn lǐngdǎo gǔpǔ bǎomǔ

4) gǔdǎi shǒushù gǔdòng gǒnggù

5) bǎobèi nǎinai hǎoma pǎole

8. Tinglab to‘g‘ri variantni belgilang.

1) tān tāng chǎng chǎn gēn gān děng dǒng

2) sēn sēng chéng chóng bìn bīng lěng lǐng

3) háng káng fèn fèng lán láng hóng gòng

4) shōu shū píng pín dòng tòng lín nín

5) hǒu hǒng chán cán mán nán kēng kōng

9. Tinglab yunmularni yozing, ohang belgilarini qo‘ying.

g _____ k _____ k _____ sh _____ h _____ k

h _____ h _____ g _____ g _____ g _____ g

k_____ k_____ sh_____ f_____ l_____ c
b_____ l_____

10. Eshitgan shenmularingizni yozing.

_____áng _____éng _____án _____án
_____ǎn _____áng _____ě _____éng
_____āng _____ù _____āo _____ǎng
_____ēn _____ù _____ài _____u
_____ǎi _____ān _____ōng _____àn

11. Bo‘g‘inlab o‘qing.

Nín de gē ge(akangiz), tā de mèimei(uning singlisi) ,
tāmen de shūbāo (ularning sumkasi) , tā de lǎobān (uning
xo‘jayini) , tā mèimei de chē (singlisining mashinasi).

Nín hǎo ! (Salom!) Tā hěn máng. (U juda band.) Tā hǎo ma?
(U yaxshimi?) Bàba hē tāng. (Otam sho‘rva ichayapti.) Māma
kàn shū. (Onam kitob o‘qiyapti.)

三、语言知识 Til haqida ma’lumotlar

Ohangning o‘zgarishi(1)

Bir bo‘g‘inli so‘zlar yoki ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirgi bo‘g‘iniga qo‘yilgan uchinchi ohang o‘zgarmaydi, masalan: “hǎo”(yaxshi), “féiměi de mùcǎo”(yaylovdagi barra o‘tlar), qolgan holatlarda, masalan, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va yengil ohangdan oldin o‘zgarib, yarim uchinchi ohang sifatida talaffuz qilinadi. Yozuvda uchinchi ohang belgisi qo‘yiladi, masalan: Běijīng, yǔyán , gǔlǐ, jiějie .

Ikkita uchinchi ohang birga kelganida, birinchi bo‘g‘indagi uchinchi ohang ikkinchi ohangga o‘zgaradi, masalan: shuǐguǒ, liǎojiě, yǎnjiǎng .

Mashg‘ulot davomida foydalaniladigan iboralar:

看黑板。

Kàn hēibǎn. (Yozuv taxtasi (doska)ga qarang.)

读声母。

Dú shēngmǔ. (Shenmularni o‘qing.)

4- Dars

一、语音 Fonetika

1. Shenmular

j	q	x	z	zh	r
----------	----------	----------	----------	-----------	----------

j —til usti, nafassiz, portlovchi-sirg‘aluvchi jarangsiz undosh. Bu tovushni talaffuz qilganda til ustining oldingi qismi qattiq tanglayga, til uchi pastki tish milkiga tegadi, havo oqimi tilning oldingi qismi bilan qattiq tanglayning orasidan portlab – sirg‘alib chiqadi, tovush paychasi titramaydi.

q — til usti, nafasli, portlovchi- sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh. “j” ga o‘xshab talaffuz qilinadi, biroq havo kuchli chiqadi.

x —til usti, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush . Bu tovushni talaffuz qilganda, til ustining oldingi qismi qattiq tanglayga yaqinlashib til uchi pastki tishlarga tegadi , tor tirqish hosil qilib, havo oqimi shu tirqishdan sirg‘alib chiqadi. Tovush paychasi titramaydi.

z—til uchi oldi ,nafassiz, portlovchi- sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush. “c” ga o‘xshab talaffuz qilinadi, biroq “c” nafasli, “z” esa nafassiz tovush hisoblanadi.

zh—til usti orqa, nafassiz, portlovchi-sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda, “ch” ga o‘xshab ketadi, faqat “ch” nafasli, “zh” esa nafassiz tovush hisoblanadi.

r— til uchi orqa, jarangli tovush, “sh”ga o‘xshab talaffuz qilinadi, lekin havo oqimi kuchsiz sirg‘alib chiqadi. Tovush paychasi titraydi.

2 . Yunmular

i -i ia ie iao iou(-iu) ian iang iong
--

i – unli tovush. Talaffuz qilinganda til qattiq tanglayga ko‘tariladi, til uchi pastki tishlarga tegadi, lablanmaydi.

-i – unli tovush (o‘ziga xos yunmu). Faqat “z”, “c”, “s” tovushlaridan keyin keladi. Talaffuz qilinganda bu tovush “z”, “c”, “s” tovushlarining sirg‘alishini kuchaytirib jarangli tovush hosil qiladi. “i”[i] tovushi “z”, “c”, “s” lardan keyin ishlatilmasligi sababli -i ham “i” belgisi bilan ifodalaniladi. Bu ikki tovushni chalkashtirmaslikka ahamiyat berish kerak.

-i – unli tovush (o‘ziga xos yunmu). Faqat “zh”, “ch”, “sh”, “r” tovushlaridan keyin kelib ularni jarangli tovushlarga aylantiradi. Boshqa tovushlar bilan birikmaydi, yakka o‘zi ishlatilmaydi. “i”[i] tovushi “zh”, “ch”, “sh”, “r” lardan keyin ishlatilmaganligi sababli -“i” ham “i” belgisi bilan ifodalaniladi. Bu tovushni ham “i” bilan adashtirib qo‘ymaslik kerak.

ia [iA], **ie** [iε] – jarangdor qo‘sh yunmular. Bu tovushlarni talaffuz qilganda birinchi unli tovush qisqa va yengil aytiladi. Talaffuz qilish

o‘rni mana shu tovushdan boshlanib, ikkinchi unli tovush jarangli va aniq aytiladi.

ie – bu bo‘g‘inda “e” oddiy yunmu hisoblanadi. Talaffuz qilinganda og‘iz kichik ochiladi, til unchalik baland ko‘tarilmaydi. Lablar yozilib, til uchi pastki tishlarga yaqinlashadi.

iao [iau], **iou**[iou] – qo‘shma yunmular. Birinchi unli yunmu tovush yengil, qisqa va kuchsiz aytiladi, ikkinchi tovush cho‘ziq va tez, uchinchi tovush esa reduktsiya bilan talaffuz qilinadi.

ian [iɛn], **iang**[iaŋ], **iong**[yŋ] –burun yunmulari. Bosh element qisqa va kuchsiz aytiladi. Keyin [ɛŋ], [aŋ], [yŋ] tovushlari talaffuz qilinadi.

3. Transkriptsiya qoidalari. (1)

1. “y” ning ishlatishi.

“i” tovushi bo‘g‘in boshida “y” bilan ifodalanadi .

“ia”, “ ie”, “iao”, “iou”, “ian”, “iang”, “iong” yunmulari bo‘g‘in hosil qolganda “i” tovushi “y” bilan b ifodalanadi. Masalan: ia-ya, ie-ye, iou-you, ian-yan, iang-yang, iong-yong.

Agar “i”, “in”, “ing” yunmulari bo‘g‘in hosil qilsa, “i” tovushidan oldin “y” qo‘yiladi. Masalan: i - yi, in - yin, ing - ying.

2. Ohang belgisini qo‘yish.

Ohang belgisi bo‘g‘in hosil qiluvchi unli tovush ustiga qo‘yiladi. Masalan: “bù”, “gāo”, “gǒu”, “tiě”, “miào”, “fāng”.

Unli tovush “i” ning ustiga ohang belgisi qo‘yilmoqchi bo‘linsa, “i” ning ustidagi nuqta qo‘yilmaydi. Masalan: “yī”, “xīn”, “jīng”.

3. “o” ning qisqarishi.

Agar yunmudan oldin shenmu kelsa, “iou”yunmusidagi “o” tushib qoladi va “iu” shaklida yoziladi. Bunda ohang belgisi “u” tovushining ustiga qo‘yiladi. Masalan: j-iōu-jiū, q-ióu-qiú, x-iōu-xiū.

二、练习 Mashqlar

1. Quyidagi shenmularni o‘qing.

j q x z zh r

2. Quyidagi yunmularni o‘qing.

i ia ie iao iou ian iang
iong

3. Shenmu va yunmularni o‘qing.

	i	-i	ia	ie	iao	iou	ian	iang	iong
j	jī		jia	jiē	jiao	jiu	jian	jiang	jiong
q	qī		qia	qiē	qiao	qiu	qian	qiang	qiong
x	xī		xia	xiē	xiao	xiu	xian	xiang	xiong
z		zī							
zh		zhī							
r		rī							

4. Tovushlarni taqqoslang.

biǎo—piǎo miàn—nián zhì—rì yī—nǐ
liáng—jiàng bié—liè xiōng—qióng jiā—xià
zǎo—ròu jiào—xiù zàng—réng jiē—miè
jiàn—qiàn zhǎo—rǎo jì—xì xiè—qiè

5. Tinglab yunmularni yozing, ohang belgilarini qo‘ying.

zh_____r _____sh_____zh_____zh_____ch _____p

p

j _____q _____j _____x _____y _____x _____p _____l

n _____ m _____ z _____ s _____ x _____ j _____ x
 l
 k _____ q _____ y _____ y _____ y _____ x

6. Bo‘g‘inlarni o‘qing.

míngzi yìsi hànzi cǎigòu sēnlín
 yǐnmán
 sāngzi zìcóng cānjia xiǎoxīn bùxiǔ
 zhàoyìng
 qítā qiānwàn jīnglǐ dōngxī xiàndài
 yǐngxiǎng
 yǎnmái zìjǐ zìzhì

7. Ohang belgilarini qo‘ying .

1) jinlai	qiuchang	zuanyan	meili
2) minzhu	niunai	pingbi	xiexie
3) zhuxi	lǚyóu	tianqiao	xianggang
4) kaishi	fashao	caochang	yingxiong
5) zhenzheng	xiezhu	shouzhang	jichang

8. Tinglab eshitgan tovushingizni belgilang.

1) yān yāng	yán yáng	jiān jiāng
2) niàn niàng	liáng liǎng	lián liáng
3) zǐ cǐ	zǎo cǎo	xiǎng xiàng
4) zhì rì	jī qī	qiē xiē
5) jiǎng xiǎng	zhè rè	jiǔ qiǔ

9. Tinglang, tushirib qoldirilgan shenmularni yozing.

1) _____ iū _____ íóng _____ iān _____ iáng _____ ǎ

- 2)_____iā_____ǎo_____áng_____ōng_____iě
 3)_____èi_____ǐ_____èn_____án_____iū
 4)_____ēng_____ì_____iǎo_____ào_____ū
 5)_____iàn_____én_____iāng_____iào_____iān

10. Bo‘g‘inlarni o‘qing.

Nínhǎo! (Salom!) Nǐ hǎo ma? (Yahshimisan?) Hěn hǎo, xièxie.

(Yahshi, rahmat)

Tā yě hěn hǎo. (U ham yahshi). Tāmen xiě hànzi. (Ular iyeroglif yozishayapti.)

Nǐ jiào shénme míngzi? (Sening isming nima?) Lǎoshī, zàijiàn.

(Ustoz, xayr.) Xiǎo Lǐ zài jiàoshì ma?(Siyao Li sinfdami?)

11. Transkriptsiya asosida bo‘g‘inlarni o‘qing.

fǎngzi wūzi běnzi bèizi bēizi màozi sháozi

yǐzi

fēijī qiáo xiǎo dà xiào kū xiě

hànzi

bǐ bizi yǎnjing zhǐ yéye nǎinai jiějie

dìdi

Mashg‘ulot davomida foydalaniladigan iboralar:

现在上课。

Xiànzài shàng kè.(Hozir dars boshlaymiz.)

请把书翻到第一页。

Qǐng bǎ shū fān dào dì yī yè. (Darslikning birinchi sahifasini oching.)

请注意声调。

Qǐng zhùyì shēngdiào. (Ohangga e'tibor bering.)

现在休息。

Xiàn zài xiūxi. (Hozir dam olamiz.)

一、语音 Fonetika

1. Yunmular

ua uo uai uei(ui) uan uen(uen) uang ueng

ua[uA], **uo**[uo] — Og‘iz orqa qo‘sh yunmular.

uai[uai], **uei**[uei] — Jarangdor og‘iz o‘rta qo‘sh yunmular.

uan[uan], **uen**[uən], **uang**[uaŋ], **ueng**[uəŋ] — Burun yunmulari, bulardan “eng” nmusi shenmular bilan birikmay, o‘zi mustaqil ravishda bo‘g‘in hosil qiladi.

2. Transkripsiya qoidalari. (2)

1) “w”ning ishlatilishi.

Agar “u” bilan boshlangan yunmu mustaqil bo‘g‘in bo‘lib kelsa, oldiga “w” qo‘shib yoziladi. Agar “ua”, “uo”, “uei”, “uan”, “uen”, “uang”, “ueng” yunmulari mustaqil bo‘g‘in bo‘lib kelsa ham, “u” yunmusini o‘rniga “w” tovushi yozishlari kerak, masalan:

ua→wa uo→wo uai→wai uei→wei uan→wan uen→wen
uang→wang ueng→weng

Agar “u” mustaqil bo‘g‘in hosil qilsa, oldiga “w” qo‘shib yoziladi, masalan: “wu”.

2) Tovush tushish hodisasi.

“uei” yunmusi shenmular bilan birikkanida, “e” tushib qoladi. Ohang belgisi “i” ning ustiga qo‘yiladi, masalan:

g-uèi→guì zh-uēi→zhū h-uèi→huì

“uen” yunmusi ham shenmular bilan birikkanida, “e” tushib qoladi, masalan:

ch-uēn→chūn l-uèn→lùn t-uēn→tūn

二、练习 Mashqlar

1. Quyidagi yunmularni o‘qing.

ua uo uai uei uan uen uang ueng

2. Shenmu va yunmularni o‘qing.

	ua	uo	uai	uei	uan	uen	uang	ueng
g	gua	guo	guai	gui	guan	gun	guang	
k	kua	kuo	kuai	kui	kuan	kun	kuang	
h	hua	huo	huai	hui	huan	hun	huang	
zh	zhua	zhuo	zhuai	zhui	zhuan	zhun	zhuang	
ch	chua	chuo	chuai	chui	chuan	chun	chuang	
sh	shua	shuo	shuai	shui	shuan	shun	shuang	

3. Tovushlarni taqqoslang.

duō—guó	guān—guang	cuī—suì	wāng—wēng
chūn—sūn	kuài—chuài	suǒ—luò	shuāng—zhuāng
zuò—cuò	zhuī—chuī	suō—chuō	chuān—chuāng
shuā—shuāi	wéi—wài	gǔn—guǎn	dūn—tūn

4. Tinglang va to‘g‘ri variantni belgilang.

(1) guàn guàng	huá huái	lùn lùn
(2) guàng kuàng	luǒ duō	zhuān zhuāng
(3) zhūn chūn	shuō shǎo	guǐ gěi
(4) jiào zhào	chuó cháo	guō guā

5. Ohang belgilarini qo‘ying.

(1) chuzhong	ruanruo	shengri	qianxian
(2) chuandān	píjiu	zicong	caice
(3) xihuan	xiwang	guanxi	qiusai

- (4) yanjing youyi jiehun feicui
 (5) shuaidao chuanqi dianying jiankang

6. Yengil ohangga e'tibor berib o'qing.

māma	tāmen	gēge	yéye	lái ba	wǒmen	nǎinai
bàba	didi	mèimei	Kàn ma?	Hǎo ma?	Tī ba?	

7. Tinglab, tushurib qoldirilgan yunmularni yozing, ohang belgilarini ko'rsating.

l_____ c_____ h_____ h_____ zh_____ ch_____ g_____ h_____

zh_____ k_____ sh_____ h_____ g_____ g_____ x_____ ch_____

g_____ ch_____ h_____ zh_____ ch_____ zh_____ k_____ k_____

8. O'qing.

